TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

FILOLOGIYA VA PEDAGOGIKA

2026-yil
17 (36)-son

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNALI

RU

ФИЛОЛОГИЯ И ПЕДАГОГИКА

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА ДОШКОЛЬНОГО И ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

PHILOLOGY AND PEDAGOGY

EN

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL OF THE MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

"Filologiya va pedagogika" ilmiy-metodik jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2024-yil 30-noyabrdagi 364/5-qarori bilan 10.00.00 – Filologiya va 13.00.00 – Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari (PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil 19-avgustda 360240-raqami bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan.

2026-yil
17 (36)-son

e-ISSN 3060-4885

MAS'UL MUHARRIR
Nargiza Sotvoldiyeva

MUHARRIRLAR:
Shahobiddin Rasulov
Najmiddin Ermatov
Emma Torosyan
Shaxina Muxamedjanova

SAHIFALOVCHI
Ziyoda Komilova

Tahririyat manzili:
100011, Toshkent shahri
Navoiy ko‘chasi 30-uy.
Telefon: (55) 510-28-44,
(77) 358-57-67
e-mail: til_adabiyot@umail.uz
veb-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Materiallar
@FilologiyaPedagogikaBot
orqali qabul qilinadi.

Elektron jurnal 30.09.2026 da nashr etildi.

MUASSIS
O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta'limi vazirligi
"Til va adabiyot ta'limi"
davlat korxonasi

FILOLOGIYA VA PEDAGOGIKA

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNALI

TAHRIR HAY'ATI:

10.00.00 – FILOLOGIYA

E'zozxon Karimova
O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri
Farhod Boqiyev
O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri o‘rinbosari
Azizbek Turdiyev
O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri o‘rinbosari
Farrux Jabborov
"Til va adabiyot ta'limi" – "Преподавание языка и литературы" – "Language and literature teaching" jurnali bosh muharriri
Baxtiyor Mengliyev
Toshkent Amaliy fanlar universiteti tadqiqotchi-professori, filologiya fanlari doktori
Baxtiyor Doniyorov
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Nurafshon filiali professori, filologiya fanlari doktori
Anatoliy Lixodziyevskiy
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti professori, filologiya fanlari doktori
Oksana Gibraltarskaya
O‘zbekiston Milliy universiteti professori, filologiya fanlari doktori
Sherzod Atamuradov
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
Mohichexra Boltayeva
O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali dotsenti, pedagogika fanlari doktori
Muxtarbay Kurbanov
Nukus davlat pedagogika instituti dotsenti, filologiya fanlari doktori
Anvar Bo‘ronov
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
Dilmurod Teshaboyev
Farg‘ona davlat universiteti boshlang‘ich ta'lim uslubiyati kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari doktori
Gulhida Ikromova
Farg‘ona davlat universiteti boshlang‘ich ta'lim uslubiyati kafedrasi katta o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
Aziza Axmedova
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi o‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti katta ilmiy xodimi
Iroda Nasimova
O‘zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti katta o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
Ma'suma Mo‘minova
Shahrisabz davlat pedagogika instituti dotsent, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

13.00.00 – PEDAGOGIKA

Qozoqboy Yo‘ldoshev
Toshkent Amaliy fanlar universiteti professori, pedagogika fanlari doktori
G‘ofir Hamroyev
Toshkent Amaliy fanlar universiteti tadqiqotchi-professori, pedagogika fanlari doktori
Xadicha Muxitdinova
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti professori, pedagogika fanlari doktori
Gulnora Mansurova
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, falsafa fanlari doktori
Sevara Ziyayeva
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti, filologiya fanlari doktori
Indira Narkulova
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti katta o‘qituvchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori
Abduvali Daminov
O‘zbekiston Milliy universiteti ijtimoiy fanlar fakulteti huquqiy fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi
Gulnoza Uzokova
Qarshi davlat universiteti professori, pedagogika fanlari nomzodi
Lola Akramova
Toshkent davlat tibbiyot universiteti o'zbek tili va xorijiy tillar, pedagogika kafedrasi dotsenti
Zulfiya Ortiqova
Farg‘ona davlat universiteti boshlang‘ich ta'lim uslubiyati kafedrasi katta o‘qituvchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori
Pulotjon Qaxorov
Samarqand davlat universitetining Urgut filiali dotsenti
Dilafruz Asqarova
Farg'ona davlat universiteti maktabgacha ta'lim kafedrasi o‘qituvchisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2024-yil 30-noyabrdagi 364/5-qarori bilan 10.00.00 – Filologiya va 13.00.00 – Pedagogika fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari (PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashr.

M U N D A R I J A

10.00.00 – FILOLOGIYA

Charos Yoqubova. Folklor ertaklarining teatr sahnasidagi konseptual transformatsiyasi ("Muqbil toshotar" ertagi talqinida) 4
Gulruh Azamova. O'zbek tilshunosligida sodda gapda subyekt va predikat o'rtasidagi paradigmatik munosabatlar turlari 6
Shoxidaxon Kurbanova. Ingliz va o'zbek tilshunoslik diskursida til modelining epistemologik pozitsionalligi 8
Dilmurod Sirojidinov. Kognitiv lingvistikada antropotsentrik paradigma va lisoniy shaxs konsepti 11
Nafisa Nazarova. O'tkir Hoshimovning "Urushning so'nggi qurboni" hikoyasida qo'llangan iboralarning lingvistik talqini 13
Gulshan Rahim. O'zbek manbashunosligi va matnshunosligining dolzarb masalalari 15
Shaxnoza Sultanova. Biznes PR kontentida sintetik media vositalaridan foydalanish 17
Mohim Xusanova. "Saddi Iskandariy" dostonining tasavvufiy-irfoniy talqinlari 20
Yulduzxon Qosimova. O'zbek mumtoz adabiyotida ayol obrazining poetik talqini va evolutsiyasi 22
Gulxayyo Po'latova. O'zbek tilidagi savol-javob tizimlari uchun morfologik segmentatsiya va normalizatsiya muammolari 24
Zarina Nizomjonova. "Mavlidi Barzanjiy" asarining poetik o'ziga xosligi 26
Xusniddin Narbutayev. Poetik obrazning semantik transformatsiyasi 28
Diloram Fattakhova. Comparative Analysis of Speech Expressiveness Tools in Russian and Uzbek Languages for Methodological Purposes 31
Dilnora Choraqulova. Linguistic Analysis of Oikonyms in the Short Stories of Vasily Shukshin 33
Dilbar Mirnosirova. O'zbek ontolingvistikasida nutqiy ijod talqini 35
Shahnoza Mansurova. Ibn Sinoning "Salomon va Absol" qissasi haqida nazariy qarashlar 38
Aziza Qarshiyeva. Ma'danlar timsolining tasavvufiy ramzlar tizimidagi o'rni 40
Ra'no Buronova. Neologizmlarning shakllanishi va rivojlanishi: tarixiy lingvistik yondashuvdan globallashuv va raqamli muhitgacha 42
Dilbar Niyazova. Jahon tilshunosligida assotsiativ-somatik portret konsepsiyasining nazariy asoslari va uni ishlab chiqish zarurati 44
Nigina Izamova. Detektiv asarlarda qahramon ruhiyatini ifoda etishda tabiat tasvirining badiiy-estetik vazifalari 46
Nafisa Nazarova. Alisher Navoiyning "Navodir ush-shabob" devonida rad san'atining qo'llanishi 50
Gulbaxor Nabiyeva. Zamonaviy nemis tilida to'siqsiz kommunikatsiyaning diskursiv-pragmatik xususiyatlari 52
Madina Bobomurodova. Lutfiyshunoslikning shakllanishi va taraqqiyot bosqichlari 54
Fazliddin Mahmadrajabov. Badr Chochiy merosining o'rganilish tarixi va zamonaviy tadqiqot zarurati 56
Римма Биксалиева. Языковые инновации В.Пелевина в репрезентации потребительской, медийной и цифровой культуры 59
Анна Коршунова. Национально-культурное своеобразие пословиц и поговорок с зоонимическим компонентом в русском и английском языках 62
Мухлиса Саидова. Сравнительно-типологический аспект поэтики семейной памяти в прозе Уткира Хашимова И Людмилы улицкой 64
Су Син. Корпусно-сопоставительный анализ деонтической модальности в гражданско-правовом дискурсе Китая и Узбекистана 66
Лола Туйлиева. Валентностная структура глаголов биологического состояния в современном русском языке 70
Аббос Кодиров. Концептуальные структуры в когнитивной лингвистике: теоретические основы взаимодействия концептологии и языковой картины мира 72
Nargizaxon Nurdinbayeva. Yoshlik kategoriyasining ayrim frazeologik birliklar orqali lisoniy voqelanishi 74
Ирина Морозова. Лингвокультурологический аспект как элемент формирования лексической компетенции 76
Жахонгир Улмасов. Лингвокультурологический анализ тематических групп паремий узбекского и русского языков 78
Mahliyoxon Umurzoqova. Zamonaviy sheriyatda folklor ananalarining badiiy transformatsiyasi 80
Sevinch Yusupova. O'tkir Hoshimov – mohir publitsist 82
Ro'zixon Xolmatova. Nazar Eshonqulning "Shamolni tutib bo'lmaydi" hikoyasida topoxronosning psixologik funksiyasi 84
Mahliyo Sattorova. Xalq kitoblarida mavzu rang-barangligi va badiiy g'oyaning ifodalanishi 86
Munisa Primova. Fransuz va o'zbek tillarida xarakterni ifodalovchi frazeologizmlarning konseptual tasnifi va milliy-madaniy xususiyatlari 88

Dilnoza Nishanova. Abdulla Oripov lirikasida madaniy konseptlarning pragmatik mohiyati va badiiy matnda moddiylashuvi 91
Gulnoza Abduraximova. Generativ sun'iy intellekt promptlarida auditoriyani belgilash va terminologik aniqlik.....93
Дилором Исломова. Национально-культурная специфика эргонимов города Намангана.....95
Светлана Им. Французский язык как одно из средств европеизации русской жизни.....97
Beg'ubor Abdullayeva. Oilada va jamiyatda xotin-qizlarning o'rni: tarbiya, ta'lim va oilaviy munosabatlar.....99
Nafisa Nazarova. O'tkir Hoshimovning "Urushning so'nggi qurboni" hikoyasida qo'llangan iboralarning lingvistik talqini.....101
Gulnora Qosimova. Yapon bolalar adabiyotining shakllanishida Ivaya Sazanami ijodining ahamiyati 103
Iroda Utayeva. Technological Development and Practical Applications of Machine Translation 106
Surayyo Akramova. Jamol Kamol she'riyatida til shaxsiyati va muallif pozitsiyasining ifodalanishi.....109
Xurshida Batirova. Oliy ta'lim muassasalari rasmiy saytlaridagi qisqa yangiliklar institutsional media janri va tarjima obyekti sifatida.....111
Baxtiniso Erasheva. Lingvokulturologiya va kognitiv tilshunoslikda transport terminologiyasining o'rni 114
Oybarchin Mavlanova. Ingliz va o'zbek tillarida hissiyotlarning metaforik ifodalanishi: kognitiv-lingvistik tahlil.....116
Shahnoza Qarshiyeva. Globallashuv sharoitida o'zbek iqtisodiy diskursiga ingliz tilidan o'zlashgan birliklarning lingvistik adaptatsiya jarayonlari 118
Abdulazizbek Qodirov. Identitet inqirozining badiiy matnda ifodalanishi.....120
Madina Qodirova. Tabiat ramzlari va ularning jamiyat hayotini fodalashdagi estetik funksiyasi 122
Rizvon Saidova. "Lison ut-tayr" dostonining o'rganilishi: ilmiy tadqiqotlar tahlili 124
Maftuna Elmirzayeva. Ingliz va o'zbek tillarida ijtimoiy himoya terminlarining konseptual metaforizatsiyasi va obrazli nominatsiya modellari 127

13.00.00 – PEDAGOGIKA

To'lg'anoy Xo'jamurodova. Developing Interactive Vocabulary Materials With Wordwall for young English Learners.....129
Xudaybergan Kuchkinov. Texnik matnlarni o'qitish orqali talabalarning lug'at boyligini oshirish usullari.....133
Dilnoza Nazarova. Leksikologiyani o'qitishda zamonaviy pedagogik metodlardan foydalanish metodikasi.....135
Akmal Amanov. Bo'lajak tarjimonlarda madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini autentik materiallar vositasida rivojlantirish texnologiyasi va uning bosqichlari.....140
Farangiz Sag'dullayeva. Enhancing Practical-Diagnostic Skills in Technical Higher Education Through the Integration of Interactive Methods and Swot Analysis 144
Ойнур Жаркинова. Рецептивная эстетика как методология анализа кинематографической интерпретации литературного текста (на примере романа Л.М.Олкотт «Маленькие женщины») 146
Валентина Хегай. Интерактивный семинар как инновационный подход к преподаванию русского языка в вузе.....148
Гулбахор Мамадалиева. Проектная деятельность как структурный элемент системы современного обучения русскому языку.....150
Oygul Sayfiyeva, Israildjon Umurzakov. Milliy maktablardagi rus tili darslarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish usullari.....152
Nilufar Maxmudova. Bo'lajak o'qituvchilarga qo'yiladigan pedagogik talab va vazifalar 154
Ойгул Сайфиева. Побудительные предложения в учебных ситуациях на уроках русского языка в национальной школе.....156
Мехриноз Рахматова. Педагого-психологические направления совершенствования воспитательного процесса в общеобразовательных школах на основе технологического подхода.....158
Dilnoza Mamatova. Akademik o'qish va yozish ko'nikmalarini rivojlantirishda sun'iy intellekt integratsiyasi.....160
Nilufar Oymatova. Jadid adabiyotini o'qitishda sun'iy intellekt vositalaridan foydalanishning metodik asoslari.....162
Munisa Sulaymonova. Bo'lajak o'qituvchilarda ijodkorlik faoliyatini shakllantirish va rivojlantirish yo'llari 165
Dilnozaxon Karimjonova. Talabalarning gapirish ko'nikmasini rivojlantirishning zamonaviy usullari: dissertatsion tadqiqotlar tahlili.....167
Robiya Shamiyeva. Teaching English Idioms to Uzbek EFL Learners Through Conceptual Metaphor Awareness 169

Dilnoza NAZAROVA,
Buxoro viloyati Peshku tumani 28-maktab o'qituvchisi,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

LEKSIKOLOGIYANI O'QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK METODLARDAN FOYDALANISH METODIKASI

Annotatsiya. Mazkur maqolada umumiy o'rta va oliy ta'lim tizimida leksikologiyani o'qitish jarayonini takomillashtirishda zamonaviy pedagogik metodlardan foydalanishning nazariy va metodik asoslari yoritiladi. Kontekstual, kommunikativ, muammoli ta'lim, interfaol, hamkorlikda o'qitish, topshiriqqa asoslangan hamda raqamli ta'lim metodlarining leksikologiyani o'qitishdagi imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, leksikologiyaga oid mavzularni o'rgatishning metodik modeli bosqichma-bosqich ishlab chiqiladi. Ushbu model nazariy tushunchani berishdan boshlab, kontekstual tahlil, semantik kuzatish, interfaol mashqlar, kommunikativ topshiriqlar, mustaqil qo'llash va baholash bosqichlarini qamrab oladi. Leksikologiyani o'qitishda zamonaviy metodlardan foydalanish o'quvchilarning nafaqat nazariy bilimlarini, balki amaliy nutqiy ko'nikmalarini ham rivojlantirishga xizmat qilishi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: leksikologiya, ona tili ta'limi, metodika, zamonaviy pedagogik metodlar, kommunikativ kompetensiya, kontekstual yondashuv, interfaol ta'lim, muammoli ta'lim, leksik kompetensiya, nutqiy ko'nikma.

Annotation. This article discusses the theoretical and methodological foundations of using modern pedagogical methods to improve the process of teaching lexicology in general secondary and higher education. It analyzes the potential of contextual, communicative, problem-based, interactive, collaborative, task-based, and digital learning methods in teaching lexicology. In addition, a step-by-step methodological model for teaching lexicological topics is developed. The model covers the stages from presenting theoretical concepts to contextual analysis, semantic observation, interactive exercises, communicative tasks, independent application, and assessment. The article substantiates that the use of modern methods in teaching lexicology contributes not only to the development of students' theoretical knowledge but also to the improvement of their practical language and speech skills.

Keywords: lexicology, mother tongue education, teaching methodology, modern pedagogical methods, communicative competence, contextual approach, interactive learning, problem-based learning, lexical competence, speech skills.

Аннотация. В статье рассматриваются теоретические и методические основы использования современных педагогических методов в совершенствовании процесса преподавания лексикологии в системе общего среднего и высшего образования. Анализируются возможности контекстуального, коммуникативного, проблемного, интерактивного, кооперативного, задачного и цифрового методов обучения в преподавании лексикологии. Кроме того, поэтапно разрабатывается методическая модель обучения лексикологическим темам. Данная модель охватывает этапы от представления теоретического понятия до контекстуального анализа, семантического наблюдения, интерактивных упражнений, коммуникативных заданий, самостоятельного применения и оценивания. Обосновывается, что использование современных методов при обучении лексикологии способствует развитию не только теоретических знаний учащихся, но и их практических речевых навыков.

Ключевые слова: лексикология, обучение родному языку, методика обучения, современные педагогические методы, коммуникативная компетенция, контекстуальный подход, интерактивное обучение, проблемное обучение, лексическая компетенция, речевые навыки.

Bugungi kunda ta'lim jarayonining asosiy vazifalaridan biri o'quvchiga faqat tayyor bilimlarni yetkazish emas, balki unda olingan bilimlardan amaliy faoliyatda, xususan, real kommunikativ vaziyatlarda samarali foydalanish kompetensiyasini shakllantirishdan iborat. Bu jarayon ona tili ta'limida ham o'ziga xos metodik yondashuvlarni talab etadi. Ayniqsa, tilning lug'at tarkibini o'rganuvchi leksikologiya bo'limini o'qitishda an'anaviy nazariy tushuntirishlar bilan bir qatorda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Leksikologiya til birliklarining ma'nosi, ularning o'zaro munosabati, qo'llanish xususiyatlari, faol va nofaol lug'at tarkibi, sinonimiya, antonimiya, omonimiya, ko'p ma'nolilik, paronimiya, frazeologik birliklar kabi ko'plab masalalarni qamrab oladi. Mazkur mavzularning aksariyati abstrakt xarakterga ega bo'lgani sababli ularni faqat ta'rif va qoidalarni yod oldirish asosida o'rgatish o'quvchilarning mavzuni chuqur o'zlashtirishini har doim ham ta'minlay olmaydi.

Masalan, o'quvchiga "sinonimlar – shakli har xil, ma'nosi bir-biriga yaqin bo'lgan so'zlar" degan ta'rifni berishning o'zi yetarli emas. O'quvchi sinonimik qatordagi birliklarning ma'no nozikliklarini anglay olishi, ularning uslubiy xususiyatlarini farqlashi va muayyan nutqiy vaziyatda eng mos variantni tanlay olishi lozim. Xuddi shuningdek, ko'p ma'noli so'zlarni o'rgatishda ham faqat lug'aviy ma'nolarni sanab o'tish emas, balki ushbu ma'nolarning kontekstda qanday yuzaga kelishini ko'rsatish samaraliroq hisoblanadi.

Shu nuqtayi nazardan, leksikologiyani o'qitish metodikasida "bilim berish"dan "bilimni qo'llash"ga, "tayyor ma'lumot"dan "mustaqil izlanish"ga, "o'qituvchi markazli ta'lim"dan "o'quvchi faoliyatiga asoslangan ta'lim"ga o'tish zarurati yuzaga kelmoqda.

Zamonaviy til ta'limida kommunikativ yondashuvning rivojlanishi ham leksik birliklarni o'rgatish metodikasiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Wilkins til o'rganishda grammatik bilimlar bilan bir qatorda lug'aviy birliklarning muhim o'rin tutishini ta'kidlagan bo'lsa, Nation lug'at boyligini o'rgatishda so'zning shakli, ma'nosi va qo'llanish imkoniyatlarini kompleks ravishda o'zlashtirish zarurligini asoslaydi. Schmitt esa lug'at o'qitishning turli strategiyalarini tizimli ravishda qo'llash muhimligini ko'rsatadi. Demak, leksikologiyani o'qitish jarayonida zamonaviy metodlardan foydalanish masalasi nafaqat pedagogik, balki lingvodidaktik jihatdan ham dolzarb hisoblanadi.

Leksik birliklarni o'rgatish metodikasi til ta'limining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida uzoq yillardan buyon lingvodidaktik tadqiqotlarning obyekti bo'lib kelmoqda. Tilni o'rgatishda lug'at boyligining ahamiyati Wilkins, Carter, McCarthy, Nation, Schmitt, Thornbury kabi olimlarning tadqiqotlarida keng yoritilgan.

Wilkinsning yondashuvida kommunikativ faoliyatni amalga oshirish uchun lug'aviy birliklarni yetarli darajada egallash muhimligi ko'rsatiladi. Ushbu qarash leksikologiyani o'qitishda so'zlarni faqat lingvistik obyekt sifatida emas, balki kommunikativ vosita sifatida o'rganish zarurligini ko'rsatadi.

Schmitt lug'at o'qitish strategiyalarini bevosita va bilvosita strategiyalarga ajratib, o'quvchilarning yangi leksik birliklarni

mustaqil o'zlashtirish ko'nikmalarini rivojlantirish muhimligini qayd etadi [1: 25].

Carter va McCarthy tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda esa leksik birliklarning real nutqdagi qo'llanishi, kollokatsiyalar va kontekstual ma'no masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Bu yondashuv leksikologiyani o'qitishda lug'aviy birliklarni alohida-alohida emas, balki nutqiy kontekst tarkibida o'rgatish zarurligini ko'rsatadi.

Richards va Rodgers zamonaviy til ta'limida kommunikativ va interfaol metodlarning rivojlanishini tahlil qilib, ta'lim oluvchining faol kommunikativ faoliyatini markazga qo'yuvchi yondashuvlarning ahamiyatini ko'rsatgan [2: 74]. Umuman olganda, mavjud ilmiy-metodik qarashlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, zamonaviy leksik ta'lim quyidagi tamoyillarga asoslanishi maqsadga muvofiq:

1) leksik birlikni kontekstda o'rgatish;
2) shakl va ma'noni birgalikda tahlil qilish;
3) so'zning nutqiy qo'llanishini ko'rsatish;
4) o'quvchini mustaqil izlanishga jalb qilish;
5) interfaol topshiriqlardan foydalanish;
6) o'rganilgan birliklarni kommunikativ vaziyatlarda qo'llash;
7) raqamli vositalardan maqsadli foydalanish.

Tadqiqotda leksikologiyani o'qitish metodikasini takomillashtirish maqsadida nazariy tahlil, qiyosiy tahlil, pedagogik kuzatish, metodik modellashtirish, umumlashtirish va tizimlashtirish metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasining asosini kommunikativ, kompetensiyaviy, kontekstual va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar tashkil etadi.

Kommunikativ yondashuv o'quvchining leksik bilimlarini real nutqiy faoliyat bilan bog'lashga xizmat qiladi.

Kontekstual yondashuv so'z ma'nosini uning nutqiy muhitidagi qo'llanishi asosida aniqlash imkonini beradi.

Kompetensiyaviy yondashuv esa o'quvchining egallagan leksik bilimlarini amaliy vaziyatlarda qo'llay olish darajasiga e'tibor qaratadi.

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv o'quvchining individual imkoniyatlari, qiziqishlari va mustaqil faoliyatini hisobga olishni nazarda tutadi. Tadqiqotda ushbu yondashuvlarni o'zaro integratsiyalash asosida quyidagi metodik model taklif qilindi: **Nazariy tushuncha → Kontekstual taqdimot → Semantik tahlil → Interfaol mashq → Kommunikativ topshiriq → Mustaqil qo'llash → Baholash**

Mazkur modelning asosiy afzalligi shundaki, unda nazariy bilim bevosita amaliy faoliyat bilan bog'lanadi.

Natijalar. Tadqiqot natijasida leksikologiyani o'qitishda zamonaviy pedagogik metodlardan foydalanishning bir qator metodik imkoniyatlari aniqlandi.

1-jadval. Leksikologiyani o'qitishda an'anaviy va zamonaviy yondashuvlarning qiyosiy tavsifi

Mezon	An'anaviy yondashuv	Zamonaviy yondashuv
O'qituvchi roli	Asosiy axborot manbai	Tashkilotchi va yo'naltiruvchi
O'quvchi roli	Tayyor bilimni qabul qiladi	Faol ishtirokchi
Asosiy faoliyat	Ta'rif va qoidani o'zlashtirish	Tahlil, izlanish va qo'llash
So'z ma'nosi	Lug'aviy ta'rif orqali	Kontekst va nutqiy vaziyat orqali
Mashq turi	Reproduktiv	Produktiv va kommunikativ
Baholash	Bilimni qayta aytish	Bilimni amalda qo'llash
Texnologiyalar	Cheklangan	Raqamli va interfaol
Natija	Nazariy bilim	Leksik va kommunikativ kompetensiya

Jadvaldan ko'rinadiki, zamonaviy yondashuv leksikologiyani o'qitish jarayonining markaziga o'quvchi faoliyatini olib chiqadi.

Kontekstual o'qitish metodi. Leksikologiyani o'qitishda eng samarali metodlardan biri kontekstual yondashuv hisoblanadi [4: 153]. Ushbu metodda yangi so'z yoki leksik hodisa alohida holda emas, balki gap, matn, dialog yoki muayyan nutqiy vaziyat tarkibida taqdim etiladi. Masalan, "og'ir" so'zining ma'nolarini o'rgatishda quyidagi gaplardan foydalanish mumkin:

- Og'ir yukni ko'tarish qiyin.
- Uning ahvoli og'ir.
- Og'ir kunlarni boshdan kechirdik.
- Uning so'zlari menga og'ir botdi.

O'quvchi ushbu gaplarni tahlil qilish orqali bir so'zning turli kontekstlarda turlicha ma'no ifodalashini mustaqil ravishda aniqlaydi. Bunday metod o'quvchining kuzatish, taqqoslash va xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Kommunikativ metod. Kommunikativ metodning asosiy maqsadi o'rganilgan leksik birliklarni real nutqiy faoliyatda qo'llashga o'rgatishdir. Masalan, sinonimlarni o'rganishda o'quvchilarga "chiroyli", "go'zal", "ko'rkam", "latofatli" kabi birliklar berilib, ularni turli vaziyatlarda qo'llash topshiriladi.

O'quvchi quyidagi savolga javob topishi kerak: Nima uchun "go'zal tabiat" birikmasida "go'zal" so'zini ishlatish mumkin, ammo ayrim boshqa kontekstlarda "chiroyli" so'zi tabiiyroq eshitiladi?

Bu topshiriq orqali o'quvchi sinonimlarning mutlaq teng emasligini, ularning uslubiy va semantik farqlarini anglay boshlaydi.

Muammoli ta'lim metodi. Muammoli ta'limda o'quvchiga tayyor xulosa berilmaydi. U muayyan lingvistik muammo bilan to'qnashadi va uni mustaqil hal qiladi. Masalan: "Yuz" so'zi quyidagi gaplarda qanday ma'nolarda qo'llangan?

1. Uning yuzi kulib turardi.
2. Stolning yuzi toza edi.
3. U yuz so'm pul berdi.

O'quvchi ushbu misollar asosida so'zning ko'p ma'noliligini aniqlashi va ma'nolar o'rtasidagi semantik aloqani izohlashi kerak. Bu metod o'quvchini tayyor qoidani yodlashdan ko'ra, qoidani o'zi kashf etish jarayoniga olib keladi.

"Aqliy hujum" metodi. "Aqliy hujum" metodi leksik birliklarni faollashtirishning samarali vositalaridan biridir.

Masalan, "Vatan" mavzusida o'quvchilarga quyidagi topshiriq beriladi:

"Vatan" tushunchasini ifodalovchi imkon qadar ko'p so'z va birikmalarni ayting. O'quvchilar:

- ona yurt;
- tug'ilib o'sgan joy;
- yurt;
- mamlakat;
- diyor;
- zamin;
- vatanparvarlik;
- xalq;
- millat

kabi birliklarni taklif qilishlari mumkin. Keyingi bosqichda ushbu birliklar ma'no va uslubiy xususiyatlariga ko'ra guruhlanadi.

Klaster metodidan foydalanish. Klaster metodi leksik birliklar o'rtasidagi semantik munosabatlarni vizual ko'rinishda ifodalash imkonini beradi [6: 31]. Masalan, markazga **"TA'LIM"** tushunchasi yoziladi va uning atrofida: **maktab → ustoz → bilim → kitob → talaba → dars → tarbiya → kelajak** kabi birliklar joylashtiriladi. Keyin o'quvchilardan ushbu birliklar o'rtasidagi ma'no munosabatlarini tushuntirish talab qilinadi.

"Sinkveyn" metodidan foydalanish. Sinkveyn metodi o'quvchining muayyan tushuncha bo'yicha lug'aviy boyligini faollashtirishga yordam beradi.

Masalan: **Kitob**
Qiziqarli, foydali
O'rgatadi, tarbiyalaydi, rivojlantiradi
Kitob insonning eng yaqin do'stidir.
Bilim.

Ushbu metod orqali o'quvchilar bir tushunchani turli so'z turkumlari va semantik birliklar yordamida ifodalashga o'rganadilar.

2-jadval. Zamonaviy metodlarning leksikologiyani o'qitishdagi metodik funksiyalari

Metod	Asosiy vazifasi	Rivojlantiriladigan ko'nikma
Kontekstual metod	So'z ma'nosini vaziyat asosida aniqlash	Semantik tahlil
Kommunikativ metod	So'zlarni real nutqda qo'llash	Nutqiy kompetensiya
Muammoli ta'lim	Lingvistik muammoni mustaqil hal qilish	Tanqidiy fikrlash
Aqliy hujum	Lug'aviy birliklarni tezkor faollashtirish	Assotsiativ fikrlash
Klaster	Semantik munosabatlarni tizimlashtirish	Tizimli fikrlash
Sinkveyn	So'z va tushunchalarni ijodiy ifodalash	Ijodiy fikrlash
Juftlikda ishlash	Birgalikdagi tahlil	Hamkorlik
Rolli o'yin	Leksik birliklarni vaziyatda qo'llash	Kommunikativ ko'nikma
Raqamli metod	Interaktiv materiallardan foydalanish	Mustaqil ta'lim
Loyiha metodi	Leksik materialni mustaqil tadqiq qilish	Tadqiqotchilik

Tadqiqot doirasida leksikologik mavzularni o'qitishning yetti bosqichli metodik modeli taklif etiladi.

1-bosqich. Nazariy tushunchani shakllantirish. O'qituvchi yangi leksik hodisa haqida qisqa va tushunarli nazariy ma'lumot beradi. Bunda uzun nazariy izohlardan ko'ra, asosiy tushunchalar va aniq misollardan foydalanish maqsadga muvofiq.

2-bosqich. Kontekstual taqdimot. Yangi leksik hodisa matn, dialog yoki gaplar tarkibida beriladi.

3-bosqich. Semantik tahlil. O'quvchilar berilgan birliklarning ma'nosi, shakli, qo'llanish doirasi va uslubiy xususiyatlarini tahlil qiladilar.

4-bosqich. Interfaol mashq. O'quvchilar juftlik yoki kichik guruhlarda mashqlar bajaradilar.

5-bosqich. Kommunikativ topshiriq. O'rganilgan birliklardan foydalanib dialog, monolog, matn yoki vaziyatli topshiriq bajariladi.

6-bosqich. Mustaqil qo'llash. O'quvchi o'zining mustaqil misollarini yaratadi.

7-bosqich. Baholash. O'quvchining nafaqat nazariy bilimlari, balki leksik birliklarni to'g'ri va maqsadga muvofiq qo'llay olishi ham baholanadi.

3-jadval. Leksikologiyani o'qitishning bosqichma-bosqich metodik modeli

Bosqich	O'qituvchi faoliyati	O'quvchi faoliyati	Kutiladigan natija
1. Nazariya	Tushuncha va qoida beradi	Tinglaydi, savol beradi	Nazariy bilim
2. Kontekst	Misol va matn taqdim etadi	Kuzatadi	Kontekstni anglash
3. Tahlil	Savollar beradi	So'z ma'nosini tahlil qiladi	Semantik ko'nikma
4. Interfaol mashq	Topshiriq tashkil qiladi	Guruh/juftlikda ishlaydi	Amaliy ko'nikma
5. Kommunikativ faoliyat	Vaziyat yaratadi	Dialog va matn tuzadi	Nutqiy kompetensiya
6. Mustaqil qo'llash	Individual topshiriq beradi	Mustaqil misol yaratadi	Ijodiy qo'llash

7. Baholash	Natijani baholaydi	O'z faoliyatini tahlil qiladi	Refleksiya

Amaliy metodik ishlanma. Leksikologik mavzularni zamonaviy metodlar asosida o'qitishga misol sifatida **"Sinonim so'zlar"** mavzusini olish mumkin.

Darsning maqsadi. O'quvchilarda sinonim so'zlarning ma'no xususiyatlarini farqlash, ularni nutqiy vaziyatga mos tanlash va mustaqil qo'llash ko'nikmasini shakllantirish.

1-topshiriq. Kuzatish

O'quvchilarga quyidagi gaplar beriladi:

- U juda **chiroyli** qiz.
- Bu yerda **go'zal** manzara mavjud.
- Shahar markazida **ko'rkam** binolar qad rostlagan.

Savol:

Qalin yozilgan so'zlarning umumiy va farqli jihatlari nimada?

2-topshiriq. Guruhlash

O'quvchilarga quyidagi so'zlar beriladi: **katta, ulkan, bahaybat, buyuk, yirik, keng**

Ular ushbu birliklarni ma'no xususiyatlariga ko'ra guruhlaydilar.

3-topshiriq. Kommunikativ vaziyat

O'quvchilarga quyidagi vaziyat beriladi: Siz gazeta uchun shahar haqida maqola tayyorlayapsiz. "Chiroyli" so'zini takror-takror ishlatmasdan, uning ma'nodoshlaridan foydalanib 5–6 gaplik matn tuzing.

Bu topshiriq o'quvchining sinonimlarni faqat tanib olish emas, balki ularni **nutqiy maqsadga muvofiq tanlash** ko'nikmasini shakllantiradi.

4-topshiriq. Ijodiy faoliyat

O'quvchilar "Bahor" mavzusida kichik matn tuzadilar. Matnda kamida 5 ta sinonimik birlikdan foydalanish talab qilinadi.

5-topshiriq. Refleksiya

Dars yakunida o'quvchilarga quyidagi savollar beriladi:

- Bugun qanday yangi bilimga ega bo'ldingiz?
- Sinonimlarni tanlashda nimaga e'tibor berish kerak?
- Sinonimlarning barchasini istalgan vaziyatda almashtirib ishlatish mumkinmi?
- Qaysi topshiriq siz uchun eng qiziqarli bo'ldi?

Muhokama. Leksikologiyani o'qitish jarayonida zamonaviy metodlardan foydalanishning muhim jihati shundaki, bunda leksik birliklarni o'zlashtirish jarayoni faqat xotira faoliyati bilan cheklanib qolmaydi. O'quvchi so'zning ma'nosini anglaydi, uni boshqa birliklar bilan taqqoslaydi, kontekstda kuzatadi, muayyan vaziyatda tanlaydi va mustaqil ravishda qo'llaydi. An'anaviy ta'limda ko'pincha "ta'rif – misol – mashq" ketma-ketligi ustun bo'lsa, taklif etilayotgan metodik modelda "kuzatish – muammo – tahlil – xulosa – qo'llash – refleksiya" ketma-ketligiga ham muhim o'rin beriladi.

Bu esa o'quvchining bilish faoliyatini faollashtiradi. Ayniqsa, kontekstual va kommunikativ metodlarning integratsiyasi muhim metodik imkoniyatlarni yuzaga chiqaradi. Chunki o'quvchi so'zning ma'nosini kontekst orqali anglab olgach, uni real yoki modellashtirilgan kommunikativ vaziyatda qo'llaydi. Natijada passiv lug'at boyligining faol nutqiy lug'atga aylanish imkoniyati oshadi.

Shuningdek, zamonaviy metodlar o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish imkonini beradi. Masalan, ayrim o'quvchilar vizual materiallar orqali, boshqalari esa muammoli vazifalar yoki kommunikativ mashqlar orqali yaxshiroq o'zlashtirishi mumkin. Shu sababli leksikologiyani o'qitishda yagona metodga tayanishdan ko'ra, metodlarning kombinatsiyasidan foydalanish maqsadga muvofiq.

Bunda o'qituvchining roli ham o'zgaradi. O'qituvchi tayyor ma'lumot beruvchi emas, balki o'quvchining izlanishiga yo'naltiruvchi, muammoli vaziyat yaratuvchi va o'quv faoliyatini tashkil etuvchi subyekt sifatida namoyon bo'ladi.

Leksik kompetensiyani baholash mezonlari. Leksikologiyani o'qitishda baholash faqat "qoidani bilish" bilan chegaralanmasligi lozim. O'quvchining leksik kompetensiyasi bir necha mezon asosida baholanishi mumkin [5: 95].

4-jadval. Leksik kompetensiyani baholash mezonlari

Mezon	Mazmuni
Nazariy bilim	Leksikologik tushunchalarni bilish
Semantik tahlil	So'z ma'nosini aniqlay olish
Kontekstual qo'llash	So'zning kontekstga mos ma'nosini topish
Nutqiy qo'llash	So'zlardan to'g'ri va maqsadli foydalanish
Uslubiy kompetensiya	So'zning uslubiy xususiyatlarini farqlash
Mustaqillik	Mustaqil misol va matn yarata olish
Ijodkorlik	Leksik birliklardan yangi nutqiy vaziyatlarda foydalanish

Bunday baholash tizimi o'quvchining real leksik imkoniyatlarini aniqlashga xizmat qiladi.

Pedagogik natijalar. Taklif etilayotgan metodik yondashuvning qo'llanishi natijasida quyidagi pedagogik natijalarga erishish mumkin:

1) o'quvchilarning leksikologik tushunchalarni o'zlashtirish darajasi oshadi;

2) so'z ma'nosini kontekst asosida aniqlash ko'nikmasi rivojlanadi;

3) sinonim, antonim, omonim va ko'p ma'noli so'zlarni farqlash qobiliyati shakllanadi;

4) o'quvchilarning faol lug'at boyligi kengayadi;

5) o'rganilgan leksik birliklarni mustaqil nutqda qo'llash imkoniyati kuchayadi;

6) kommunikativ kompetensiya rivojlanadi;

7) mustaqil va tanqidiy fikrlash ko'nikmalari shakllanadi;

8) dars jarayonida o'quvchilarning faolligi ortadi;

9) o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlik kuchayadi;

10) leksikologiya fanining amaliy va kommunikativ yo'nalishi kuchayadi.

Leksikologiyani o'qitish ona tili ta'limining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, uning samaradorligi ko'p jihatdan tanlangan metod va pedagogik yondashuvlarga bog'liq. Mazkur tadqiqotda leksikologik bilimlarni o'quvchilarning amaliy nutqiy faoliyati bilan bog'lashga qaratilgan zamonaviy metodik yondashuvlar tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, leksikologiyani faqat ta'rif, qoida va tayyor misollar asosida o'qitish o'quvchilarning leksik imkoniyatlarini to'liq namoyon qilishga yetarli emas. Zamonaviy ta'limda kontekstual, kommunikativ, muammoli, interfaol, hamkorlikda o'qitish va raqamli metodlardan kompleks foydalanish zarur. Maqolada taklif etilgan "Nazariy tushuncha → Kontekstual taqdimot → Semantik tahlil → Interfaol mashq → Kommunikativ topshiriq → Mustaqil qo'llash → Baholash" modeli leksikologiyani o'qitishning nazariy va amaliy jihatlarini birlashtirishga xizmat qiladi. Mazkur modelning asosiy metodik afzalligi o'quvchining leksik birliklarni yodlab olishidan ko'ra, ularni anglash, tahlil qilish, taqqoslash va nutqiy vaziyatga mos ravishda qo'llashiga ustuvor ahamiyat berilishidir.

Shuningdek, leksikologiyani o'qitishda baholash mezonlarini ham qayta ko'rib chiqish maqsadga muvofiq. O'quvchining faqat nazariy bilimini emas, balki so'z ma'nosini kontekstda aniqlashi, uslubiy jihatdan to'g'ri birlikni tanlashi va uni mustaqil nutqda qo'llay olishi ham baholanishi kerak. Shunday qilib, zamonaviy pedagogik metodlardan foydalanish leksikologiya ta'limini nazariy bilim beruvchi yo'nalishdan o'quvchining leksik, nutqiy, kommunikativ va ijodiy kompetensiyalarini shakllantiruvchi amaliy ta'lim jarayoniga aylantirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Carter R. Vocabulary: Applied Linguistic Perspectives. 2nd ed. – London: Routledge, 2012.
2. Council of Europe. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment – Companion Volume. – Strasbourg: Council of Europe Publishing, 2020.
3. Nation I.S.P. Learning Vocabulary in Another Language. 2nd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2013.
4. Nazarova D. O'zbek tili leksikasining mustaqillik yillaridagi taraqqiyoti // Pedagogik mahorat. – Buxoro, 2021, №2. – B. 152–154.
5. Nazarova D.G. Unconventional ways of teaching students' morphological features of nouns // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 2020. Vol. 8, №10. – P. 92–98.
6. Richards J.C., Rodgers T.S. Approaches and Methods in Language Teaching. 3rd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2014.
7. Webb S. Approaches to Learning Vocabulary. – Cambridge: Cambridge University Press, 2020.